

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XIV RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 14-son (28-iyul, 2026-yil).– 99 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-iyul

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XIV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

SUG'DIYLARNING KOLONIAL HARAKATLARI (QANG' DAVLATI DAVRIDA)

Xolmatova Umida Normaxammad qizi

Samarqand davlat universiteti doktoranti

Email: uholmatova58@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qang davlati hukmronligi davrida So'g'diylarning savdo-sotiq va madaniy tarmoqlarni kengaytirishga qaratilgan kolonial (savdo koloniyalarini barpo etish) harakatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda So'g'd savdogarlarining Buyuk Ipak yo'li bo'ylab, xususan, Sharqiy Turkiston va Xitoy hududlarida savdo faktoriyalari va aholi punktlarini tashkil etish jarayoni hamda bu jarayonda Qang davlatining siyosiy va iqtisodiy homiylik roli yoritilgan. Manbalar asosida so'g'diylarning kolonial siyosati harbiy bosib olish emas, balki iqtisodiy-madaniy integratsiya va diplomatik aloqalarga asoslangani ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: So'g'diylar, So'g'd koloniyalari, Qang davlati, Buyuk Ipak yo'li, savdo faktoriyalari, kolonial harakatlar, antik davr diplomatiyasi.

COLONIAL MOVEMENT OF THE SUGIDIANS (During the Period of the KANG' STATE)

Kholmatova Umida Normaxammad qizi

Doctoral student at Samarkand State University

Annotation. This article analyzes the colonial (commercial settlement) movements of the Sogdians aimed at expanding trade and cultural networks during the period of the Kangju (Kang) state. The study highlights the process of Sogdian merchants establishing trading posts and settlements along the Silk Road, particularly in Eastern Turkestan and China, as well as the political and economic patronizing role of the Kangju state. Based on historical sources, it is demonstrated that Sogdian colonial activity was not driven by military conquest, but rather by economic integration, cultural diplomacy, and trade network expansion.

Keywords: Sogdians, Sogdian colonies, Kangju state, Silk Road, trading posts, colonial movement, ancient diplomacy.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ymdif-y2026v2i14/n06>

Sug'diylar Qang' davlati tarkibidagi eng faol xalq hisoblangan. Bu faollik o'z navbatida ularning savdo aloqalarida, elchilik hamda uzoq hududlarda ular tashkil etgan aholi punktlari kabi xususiyatlari o'z aksini topdi. Mana shu o'rinda aytib o'tishimiz mumkinki, aynan sug'd yozma manbalarining geografik keng hududlardan topilishi sug'dliklarning faol hayot tarzidan dalolatdir. Sug'd yozuvi markaziy Xitoydan Qora dengizgacha bo'lgan davlatlardan topilib kelinmoqda. [1; B.21.].

Aynan Sug'd shunday ulkan geografik joylashuvga tarqalishida o'z navbatida Buyuk ipak yo'lining o'rni katta. K.Baykapovanning fikricha, Talos vodiysi, Chu, Ili daryolari havzasida aholisi sug'diylardan iborat bo'lgan 300 dan ziyod shahar va aholi manzilgohlari (qishloq) vujudga kelgan. Faqatgina, Chu vodiysida asosiy aholisi sug'diylar bo'lgan 18 ta yirik shahar va ko'plab kichik manzilgohlar bo'lgan. [2; B.25.].

Sug'diylar Buyuk ipak yo'lining sharqidagi savdo aloqalarida ham muhim rol o'ynagan. Vey sulolasi tarixining 102-bobida "Sug'd davlati savdogarlari ilgari ko'proq Lyang zaminiga kelib tijorat qilar edi. Guzangda ularni ko'p uchratish mumkin edi" deb yozilgan. Tarixiy Lyang va Guzang (hozirgi Uvey) shaharlari qadimgi Xesi yo'lagida joylashgan yirik savdo markazlari

bo'lgan. Bundan ko'rinib turibdiki sug'diylarning boshqa o'lkalarga borib o'rtnashishi, yashash manzilgohlarini yaratishlari o'z navbatida ularning turmush tarzi bilan bog'liq holda kechgan. Sug'd xalqining mohir savdo ahli bo'lganligi bizga ko'plab manbalardan ayondir. Aynan savdogarlik mahoratlari tufayli ham sug'diylar ko'p sonli aholi guzarlarini tashkil etishgan. Quyida tarixiy manbalarda keltirilgan uzoq o'lkalarda tashkil etilgan sug'diy manzilgohlarga to'xtalamiz. [3; B.87.].

2000-yillarning boshlarida Xitoyning Xo'tan (SUAR (Sinzyan Uyg'ur avtonom respublikasi) janubiy g'arbidagi shahar uyezdi) viloyatidan bir guruh sug'diy hujjatlari mavjudligi aniqlangan. Hujjatlar tahlili natijasida ma'lum bo'ladiki, Xo'tan mintaqasidagi Mazar Tag, Dandan Uiliq va eski Domoko kabi shaharlarda ko'plab sug'diylar istiqomat qilishgan. Hujjatdagi diqqatga sazovor jihatlaridan biri – bu yerda “sug'diylar uyi” yoki *sūlī biśa* iborasini o'z ichiga oladigan “sug'diy qishlog'i” iborasi bir necha marotaba tilga olinadi.

Sug'diylarning Dunxuan hududi bo'ylab tarqalishi xususida muhim ma'lumotlar Xokkaydo universiteti professori Ikeda Onning xitoy qo'lyozmalarining tahlili natijasida oydinlashdi. L.I.Chiguyevskiyning Ikeda Onga tayanib keltirishicha, birgina Sunxuasyan qishlog'idagi umumiy aholining 236 nafarini erkaklar tashkil etib, ular 22 xil familiyada bo'lishgan. Mazkur familiyalarning yarmidan ko'pi (60 % taxminan) 4 ta tarmoqqa, jumladan, Samarqand (*Kan*, 48 nafar), Buxoro (*An*, 39 nafar), Toshkent (*Shi*, 31 nafar), Kabudon (*Sao*, 30 nafar) (jami: 148 nafar) hukmdorliklariga mansub familiyalar hisoblanadi. Shuningdek, hujjatlarda Sug'd va Markaziy Osiyoning boshqa mintaqalariga mansub familiyalar ham qayd etiladi. Masalan, Toxaristondan (*Lo*) 23 nafar, Kushoniyadan (*Xe*) 20 nafar va Maymurg'dan (*Mi*) 20 nafar shaxs familiyasi manbalarda tilgan olingan. Ikeda On tuzgan jadvalga ko'ra, otasi sug'diy familiyada, o'g'li xitoycha familiyali yoki aksincha holatlar ham mavjud bo'lganligi keltiriladi. Shuningdek, bir ota-onaning farzandlari ham sug'diy va xitoycha familiyada bo'lgan holatlar ham mavjud. Bir so'z bilan aytganda mazkur mintaqada har ½ biri sug'diy familiyali kishi bo'lgan. [4; B.97.].

Hozirda olimlar ixtiyorida Dunxuandan g'arbda Xitoy devorining minorasidan topilgan “Ko'hna xatlar” (1906 y.), Turfon vohasidan, asosan, Dunxuan va Qorabalg'asun (Ulan-Batordan 400 km janubdagi o'rta asr shahri)dan topilgan (1905-1906-y.) diniy, astronomiya, tibbiyot, xronologiyaga oid turli mazmundagi (sug'diy-xristian, sug'diy-moniy, sug'diy-buddaviy) hujjatlar, Mug' tog'i sug'diy hujjatlari (1932-y.), turli yillarda Panjikentda olib borilgan qazishmalar chog'ida qo'lga kiritilgan sopolga, devorga, suyakka va yog'och taxtachalarga bitilgan yozuv namunalari hamda tarozi toshlaridagi yozuvlar, tarixiy Sug'dning janubi – Qarshi va Yerqo'rg'ondan topilgan sopol va toshga bitilgan sug'diy bitiklar, tarozi toshlari, Afrosiyob devoriy suratlari (1965-y.) va qadimiy shaharchadan topilgan sopolga bitilgan yozuv namunalari, Samarqand yaqinidagi Kofirqal'adan topilgan sug'diy yozuvli tanga pullar va muhrlar, tarixiy Ustrushonaning Chilhujra saroyidan topilgan sug'diy bitik, Yettisuv va Sharqiy Turkiston hududlaridan topilgan sopol parchalari va tangalarga bitilgan sug'diy bitiklar, Toshkent vohasi (Qanqa) hududidan topilgan sug'diy tangalar va sopolga bitiklar (2000-yillar) Shatial (Pokiston va Hindiston o'rtasidagi tog'li o'tish joyi) hududlaridan topilgan toshlarga bitilgan minglab sug'diy yozuvli lavhalar (1970-y.), Qirg'iziston hududlaridan topilgan ko'za sirtiga, uning gardishiga bitilgan sug'diy yozuvli bir qancha sopol buyumlar, Kucha (Sinzyan Uyg'ur avtonom respublikasining Oqsuv okrugi) Ladak (Ladakx/Hindiston) va Tibetdan

topilgan sug'diy tosh lavhalar, Chinonchkatdan topilgan sug'diy hujjat, Kanton (Nara / Yaponiya)dagi hukmdor saroyi peshtoqidagi sug'diy bitik, Mo'g'uliston va unga tutash hududlardan topilgan Bug'ut, Ili, Ongin bitiktoshlari va boshqa sug'diy bitiklar, Oltoydan topilgan sug'diy materiallardan, Qushashir bitiklari, Markaziy Osiyo va unga tutash mintaqalardan topilgan sug'diy yozuvli tangalardan iborat yozma manbalar mavjud. [5; B.47.].

Ushbu sug'diy hujjatlarning katta qismi Sug'ddan tashqarida topilgan bo'lib, bu holat sug'diylarning tashqi migratsion harakatlari bilan bog'liq. Ayniqsa, Qang' davlati hukmronligi davrida sug'diylar ko'plab hududlarda o'zlarining manzilgohlarini tuzishgan. Sug'diylar ushbu manzillarda nafaqat aholini ko'chirish bilan balki, u yerlarda sug'diy madaniyatni keng yoyish uchun ham harakatlar olib borishgan. [6; B.37.].

Qang' davlati Yunon-Baqtriya (mil. avv. 250-125-yillar) davlatidan so'ng tarix sahnasiga chiqqan. Dastlabki Qang' hukmdorlarining tanga zarbi xususida ma'lumotlar kam (balki umuman bo'lmagan). Qang'ning ilk davrida Yunon-Baqtriya hukmdorlariga taqlidan tangalar zarb qilingan va ichki bozorda ishlatilgan bo'lishi mumkin. Olimlar Qang' davlati tarkibidagi ma'muriy birliklar uchun umumqang' tanga zarbi bo'lmagan deb keltirishadi. [7; B.63.].

Sug'd konfederatsiyasining Qang' davlati tarkibida qay tarzda boshqarilganligi masalasiga doir ma'lumotlar unchalik ham ko'p emas. Sug'd konfederatsiyasi mil. avv. 175-yilda qang'arlar tomonidan ishg'ol qilingan. Sug'd yerlariga qang'lar egalik qilgan davrdan boshlab, uning markazi Samarqand va bir qator hukmdorliklarda Qang' hukmdor xonadoniga tegishli shaxslar mamlakatni idora qilishgan. [8; B.87.].

Qang' davlati tashkil topgach, o'z tarkibidagi davlat uyushmalari bilan faol aloqalarni yo'lga qo'ygan. Jumladan, Qang'ning ajralmas qismi hisoblangan Sug'd ham markaziy hokimiyat uchun tashqi dushman hujumi davrida qo'shin yetkazib berish majburiyatini olgan ko'rinadi. Bu haqida Kulto'ba sug'diy epigrafik yodgorliklar muhim ma'lumotlar beradi. [9; B.77.].

Adabiyotlar / Литература / References:

1. Байпаков К. Средневековая городская культура Южного Казахстана и Семиречья. Алма-Ата: 1986. С. 29.
2. Gayibov B., Kushbakov H., Xujanov N. About surname "Kahn" and its spreading / International journal of Psychosocial Rehabilitation / Volume-24, Issue-6. March, 2020. P. 4585-4592.
3. Хўжаев А. Хитой манбаларида суғдларга оид айрим маълумотлар // O'zbekiston tarixi, 2004. №1. Б. 56.
4. Bo Bi, Sims-Williams Nicholas. Sogdian Documents from Khotan, II: Letters and Miscellaneous Fragments / Journal of the American Oriental Society 135.2 (2015). P. 261-282
5. Чигуевский Л.И. Новые материалы к истории согдийской колонии в районе Дуньхуана / СНВ. X. Москва: Наука, 1971. С. 150.
6. Ғойибов Б. "Кан" фамилияси ва унинг тарқалиши // Ilmiy axborotnoma. Nauchnyy vestnik. Samarqand, 2021. №2 (126).
7. Лившиц В.А. Согдийские «Старые письма» (I, III) // ППВ. Москва, 2008. № 1 (8). С. 173-176.
8. Лившиц В.А., Хромов А.Л. Согдийский язык / Основы иранского языкознания. Среднеиранские языки. Москва: Наука, 1981. С. 350-362.

9. СДГМ I. – 90 с.; СДГМ II. – 222 с.; СДГМ III. – 131 с.; Бобоёров Ғ., Ғойилов Б., Кубатин А. Ўрта Осиё битиклари. I. Суғдий ёзма ёдгорликлар. Тошкент: TAFAKKUR AVLODI, 2020. Б. 11-15, 24-59.
10. Лурье П.Б. К чтениям согдийских надписей, открытых в Пенджикенте / Рахматнаме. Сборник статей к 70-летию Рахмата Рахимовича Рахимова. Ред. М. Е. Резван. Санкт-Петербург: Кунскамера, 2008. С. 213-225.
11. Исхаков М. Оттиск печати с согдийской надписью // ОНУ. 1983, № 11. С. 43-44.
12. Бердимуродов А.Э., Богомолов Г.И., Уно Такао, Бегматов А. Буллы с буддийским сюжетом с городища Кафиркала // Археология Узбекистана. 2016. №2 (13). С. 51-60.
13. Лившиц В.А. Согдийские документы из замка Чильхуджра // Scripta Grigoriana: Сборник в честь семидесятилетия академика Г.М. Бонград-Левина. Москва, 2003. С. 77-89.
14. Yoshida Y. First fruits of Ryūkoku-Berlin joint project on the Turfan Iranian manuscripts, *Tun-huang and Turfan Studies Acta Asiatica (Bulletin of the Institute Eastern Culture LXXVIII)*, ed. by Ikeda On. Tokyo, 2000. P. 84.
15. Богомолов Г.И., Мусакаева А.А. Уникальная находка из Ташкента / Археологические исследования в Узбекистане 2004-2005. Выпуск 5. Ташкент: Фан, 2006. С. 87
16. Humbach H. Die Soghdischen inschriftenfunde vom oberen Indus (Pakistan) // Allgemeine und vergleichende Archäologie – Beiträge. Bd 2. München, 1980. P. 201-228.
17. Yoshida, Yutaka & T. Moriyasu. A Sogdian sale contract of a female slave from the period of the Gaochang kingdom under the rule of Qu clan" [in Japanese] / Studies on the Inner Asian Languages, IV. 1988.
18. Когучи Ясуо. Согдийская культура и согдийцы в Японии / Самарқанд шахрининг 2750 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий симпозиум материаллари. Тошкент-Самарқанд: Фан, 2007. С. 119-125.
19. Кляшторный С., Лившиц В. Согдийская надпись из Бугута / СНВ. Москва: Наука, 1971. Вып. X. С. 127-146.
20. Кубарев В.Д. Палаш с согдийской надписью из древнетюркского погребения на Алтае // Северная Азия и соседние территории в средние века. Новосибирск, 1992. С. 25-36.
21. Каталог согдийских монетных легенд и надчеканов Центральной Азии / Составители: А.Х.Бегматов, Г.Б.Бобоёров, Б.С.Ғойилов, А.В.Кулиш, П.Б.Лурье, А.И.Наймарк. Самарқанд: МИЦАИ, 2024.
22. Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х., Абдуллаев Е.В. Очерки по истории цивилизации древнего Узбекистана: государственность и права. Ташкент: Адолат, 2000.
23. Шониёзов К. Қанғ давлати ва қанғлилар. Тошкент: Фан, 1990. Б. 42.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XIV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, iyul

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.

XIV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.

2-jild, 14-son (28-iyul, 2026-yil). – 99 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-iyul.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.